



**ZEBI OBRAZIDA AYOL QISMATI, ADASHUV HODISASI VA
JAMIYAT ZIDDIYATLARI TALQINI**

Mavlonova Oyjamol Kozimjon qizi

*Namangan davlat pedagogika instituti O'zbek adabiyoti ixtisosligi
1-bosqich tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshlarida yozilgan Cho'lpon qalamiga mansub "Kecha va kunduz" romanidagi Zebi obrazi misolida o'sha davr jamiyatida ayolning o'rni, uning ruhiy kechinmalari hamda ijtimoiy muhit ta'sirida yuzaga kelgan adashuv hodisasi tahlil qilinadi. Tadqiqot to'rt asosiy: ruhiy-psixologik, ijtimoiy, badiiy va tarixiy-madaniy aspektlar orqali olib boriladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy obraz, ayol qismati, ruhiy inqiroz, adashuv motivi, jamiyat ziddiyatlari.

XX asr boshlarida o'zbek adabiyotida shaxsiy psixologiya, jamiyat muammolari va an'anaviy ijtimoiy me'yorlarning ayollar hayotiga ta'siri muhim mavzu sifatida yuzaga chiqdi. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani shu jarayonda Zebi obrazini yaratib, uning shaxsiy istaklari va jamiyat qoidalari o'rtasidagi ziddiyatlarni badiiy jihatdan ochib beradi. Ushbu maqolada Zebi obrazi to'rt aspekt asosida: ruhiy-psixologik, ijtimoiy-jamiyat, badiiy va tarixiy-madaniy jihatdan tahlil qilinadi.

Zebi qalbida muhabbat, erkinlik va shaxsiy baxtga intilish mavjud. U ko'p hollarda ichki iztiroblar, tushkunlik va axloqiy ikkilanishlar bilan yuzlashadi. Qahramonning mustaqil qaror qabul qila olmasligi uning ruhiy inqirozini yanada kuchaytiradi. Shu jihatdan, Zebi obrazi adashuv motivi va ruhiy iztirobni chuqur ifodalaydi. "Kecha va kunduz" romanida Cho'lpon Zebi obrazining ichki kechinmalarini ko'pincha qisqa, ammo ma'noli dialoglar orqali ochib beradi. Qahramonning ruhiy holatini ifodalovchi shunday lavhalardan biri Saltanat bilan bo'lgan suhbatda namoyon bo'ladi:

- Ertalab saharlab chopganim bekorga emas...
- Men ham sezganman... Yuragim bir qur seskanib ham oldi...
- Nimaga, o'rtoqjon?
- O'zingiz bilgan sovchilar balosi-da... Qish ichi keti uzilmadi.
- Menam bezganman, jonim qaqa... shuning uchun bir qishloqqa chiqib kelsammikan, deb edim...
- Nimasini aytasiz... Ariqdagi suv ham muzning tagidan chiqdi-ku.

Mazkur jumla tashqi jihatdan oddiy kuzatuvga o'xshab ko'rinsa-da, uning zahirida Zebining ichki ruhiy holati va erkinlikka bo'lgan yashirin intilishi



mujassam. Ariqdagi suvning muz ostidan chiqishi obrazli ma'noda qahramon qalbidagi yashirin tuyg'ularni ifodalaydi. Muz — bu jamiyat tomonidan qo'yilgan cheklovlar, an'anaviy qarashlar va ayol erkinligini to'sib turuvchi ijtimoiy muhit ramzi sifatida talqin qilinishi mumkin. Suv esa Zebining ichki orzulari, erkinlikka intilishi va hayotga bo'lgan tabiiy talpinishidir. Shunday qilib, Zebi dialogdagi ushbu qisqa jumla orqali o'z qalbidagi yashirin umid - erkinlikni ifodalaydi.

Zebi nafaqat erkinlikka, balki qalbidagi muhabbatga ham quloq tutadigan obraz hisoblanadi: uning aravakash yigitga nisbatan sof hissiyotlari va muhabbatiga jamiyatdagi tuzum va an'anaviy qarashlar to'siq bo'ladi: "Faqat qizlarning orasida ko'chadagi yosh yigitcha singari uyquasi ochilgan, ko'kragidagi yangi, begona va shirin hislarni anglayolmasdan hayron bo'lgan birov bor edi. U ham ko'kdagi oyga qarab, yerdagi 'toy'ni o'ylar va yuzlari anorday qizarar edi" Mazkur parcha Zebining qalbida ilk muhabbat kurtaklari paydo bo'layotganini aniq ko'rsatadi. "Yangi, begona va shirin hislar" ifodasi Zebi ichidagi biroq o'zini hali to'liq anglay olmagan yangi tuyg'ularni ramziy tarzda beradi. Shu paytda u o'sha yosh yigitning hayronligi va xayolga cho'mgan holati orqali o'zining ichki hissiyotlarini bilvosita anglay boshlaydi. Bu — qahramonning ichki dunyosidagi yangi ruhiy o'sish va hissiy uyg'onishning belgisi. Biroq bu nozik his-tuyg'ular jamiyat va oila tomonidan qo'yilgan cheklovlar bilan ziddiyatga kiradi. Zebi dadasining qarori bilan, bir og'iz so'zi bilan mingboshiga erga tegishga majbur qilinadi. Shu vaziyat qahramonning qalbida erkinlik istagi va majburiyat o'rtasidagi keskin ruhiy ziddiyatni yuzaga keltiradi. U o'zining yangi ochilgan muhabbat hissi va shaxsiy istaklarini ifoda eta olmaydi, balki jamiyat va oilaning qat'iy qarorlariga bo'ysunishga majbur.

Zebining hayoti patriarxal va an'anaviy jamiyat qoidalari bilan belgilanadi. Ayolning erkin tanlov huquqi cheklangan, ijtimoiy bosim kuchli. Shu sababli uning adashuv hodisasi ijtimoiy muhit ta'siri bilan yuzaga keladi. Zebi orqali muallif XX asr boshlaridagi o'zbek jamiyatidagi ayol taqdiri va uning cheklangan o'rni haqida xulosa beradi: "Uning butun baxti Razzoq so'fining johil vujudiga bog'liq emasmi? O'sha sovuq so'fi shu quvnoq jonni va sayroq qushchani istagan vaqtida baxtli yoki baxtsiz eta olmaydimi? Uning bir og'iz 'ha' yoki 'yo'q' deyishi qiz bechoraning behad quvnab yayrashiga yoxud xazon yaprog'iday bir nafasda so'lib, nobud bo'luviga yaramaydimi?" Ushbu jumlar orqali muallif o'sha davrdagi ayollarning jamiyatdagi cheklangan pozitsiyasi va huquqsizligini ochib beradi. Zebi butun hayotini, kelajagini, va ruhiy holatini erkakning ixtiyoriga bog'lagan holda tasvirlanadi. Bu esa o'z navbatida patriarxal tuzumning ayollarning shaxsiy hayotini nazorat



qilishi, ularning qaror qabul qilish huquqini cheklashi va har bir ayolni jamiyat tomonidan belgilangan rolga majbur qilishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

“Kecha va kunduz” romanida Cho'lpon qahramonlar ruhiyati va jamiyatdagi munosabatlarni ochishda turli badiiy vositalardan mahorat bilan foydalanadi. Asarda Poshshaxon tomonidan yuborilgan ayollarning Zebi atrofida bo'lishi tasvirlangan epizodda: “Poshshaxonning qo'ygan qizlari, ya'ni uning o'z odamlari shaharning o'zida, yo'lda va har yerda Zebi bilan birga bo'lishib, farishta qiyofasidagi shayton kabi uning ichiga kirib, pistoki ta'zimlar serxushomad gaplar bilan uning ko'nglini ovlab, mingboshi dodhoga uni "isittirarkan" o'zlarining muvaffaqiyatlaridan hech bir shak-shubha qilmasdilar”, - jumlasini keltiriladi. Ushbu epizoddagi “ farishta qiyofasidagi shayton” birikmasi badiiy tasvirning kuchli ramziy vositasi bo'lib, u zamon odamlari tabiatidagi ikkiyuzlamachilikni ochib beradi. Mazkur iborada “farishta” tashqi ko'rinishdagi muloyimlik, mehribonlik va poklikni ifodalasa, “shayton” ichki niyatning makkorlik va hiyla bilan bog'liqligini anglatadi. Shunday qilib, muallif birgina badiiy tasvir orqali jamiyatdagi ayrim insonlarning tashqi qiyofasi bilan ichki niyati o'rtasidagi keskin ziddiyatni ko'rsatadi. Poshshaxonning odamlarining Zebi bilan muomala qilishida ham aynan shu ikkiyuzlama holat namoyon bo'ladi: ular tashqaridan hurmat va xushomad ko'rsatgan holda, aslida qizni mingboshi dodhoga yaqinlashtirishni ko'zlaydilar. Bu tasvir orqali muallif nafaqat ayrim shaxslarning makkorligini, balki o'sha davr ijtimoiy muhitidagi manfaatparastlik va soxta munosabatlar tizimini ham ochib beradi. Zebi esa bu muhitda sodda va samimiy qahramon sifatida tasvirlanadi. Natijada, qahramonning pokligi bilan jamiyatdagi ikkiyuzlamachilik o'rtasida keskin ziddiyat yuzaga keladi.

Yoki Zebi kelin bo'lib kelgandan so'ng Enaxon va Sultonxonning hammaslagi Umrinisabibi suhbatidagi quyidagi dialogda o'sha davr jamiyatidagi ayol qismati va uning ijtimoiy ahvoli bilan bog'liq ziddiyatlarni badiiy tasvir orqali ochib beradi:

- Endi hamma hayron, xolajon... Bugun kechasi nima bo'larikin? Kuyov kirmay turib, bu shunaqa qiladi. Kuyov kirganda nima bo'lar ekan?

- Shuni aytaman, aylanay!

- Men hech chiqqim yo'q o'sha yoqqa. Chiqmasak, oqibatdan emas. Bizni deb kelib tuzoqqa tushdi sho'rlik. Menga shunday ko'zlarini mo'ltiratib qarasa, yuragim “jig'g'g'” etib ketadi! Mazkur jumlada qo'llangan “tuzoqqa tushish” iborasi ramziy ma'noga ega bo'lib, u o'sha davr ayollarining ijtimoiy ahvoli va huquqsizligini ifodalovchi muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. “Tuzoq” so'zi aslida insonning ixtiyorsiz ravishda ma'lum bir holatga tushib qolishini anglatadi. Shu ma'noda u ayol qismatining o'z xohishi bilan emas, balki jamiyat tomonidan belgilangan qoidalarga bo'ysundirilganini ifodalaydi.



XX asr boshlaridagi an'anaviy jamiyatda ayolning turmushi ko'pincha ota yoki oilaning qarori bilan belgilanar, uning shaxsiy istaklari va tanlovi esa ikkinchi darajali hisoblangan. Shuning uchun ham qizlarning turmushga chiqishi ba'zan ular uchun erkin tanlov emas, balki majburiyat sifatida qaralgan. Dialogdagi "tuzoqqa tushdi sho'rlik" iborasi aynan shu tarixiy haqiqatni ifodalab, ayolning jamiyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy tizim ichida erksiz qolganini ko'rsatadi. Muallif ushbu tasvir orqali nafaqat alohida qahramonning taqdirini, balki o'sha davr ayollarining umumiy qismatini ham yoritadi. Zebi va uning atrofidagi qizlarning suhbatida aks etgan ushbu ibora ayolning taqdiri ko'pincha boshqalar tomonidan hal qilinadigan, o'z irodasiga ega bo'la olmaydigan ijtimoiy muhit mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Natijada, qahramonlar ruhiyatida ham ichki iztirob va ziddiyat paydo bo'ladi.

Umuman olganda, Zebi obrazi jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlar ta'sirida ruhiy inqirozga uchragan ayol timsoli sifatida talqin qilinadi. Qahramonning adashuvi uning shaxsiy zaifligi yoki xatosi emas, balki jamiyatdagi murakkab ijtimoiy sharoit va insoniy erkinlikning cheklanganligi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan Zebi obrazi nafaqat alohida bir qahramonning taqdiri, balki o'sha davr ayollarining umumiy qismatini ifodalovchi badiiy timsol sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2016.
2. Ibrohim Haqqul. O'zbek adabiyoti va badiiy tafakkur masalalari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009.
3. Ozod Sharafiddinov. Cho'lponni anglash. – Toshkent: Ma'naviyat, 1994.
4. Naim Karimov. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
6. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
7. Umarali Normatov. Istiqlol davri adabiyoti va badiiy tafakkur. – Toshkent: Sharq, 2011.
8. Baxtiyor Nazarov. O'zbek adabiy tanqidi tarixi. – Toshkent: Fan, 2006.